

# BRONZA DAVRIDA TURON HUDUDIDAGI MIGRATSION JARAYONLAR:

zamonaviy tadqiqotlar  
(2018–2024) tahlili



**Jalilov Doston  
Muhiddin o'g'li,**  
tayanch  
doktorant

## Annotatsiya:

*Mazkur maqolada Turon hududining bronza davriga oid ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, o'troq dehqonchilik madaniyatlari hamda chorvador-ko'chmanchi jamoalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning natijasida yuzaga kelgan madaniy sintez jarayonlari ilmiy asosda yoritib beriladi. Tadqiqotda migratsion jarayonlar asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqilib, ularning kelib chiqish sabablari, harakat yo'nalishlari hamda hududlararo madaniy integratsiyaga ko'rsatgan ta'siri tahlil etiladi. Ayniqsa, Turonning janubiy hududlariga aholining kirib kelishi va bu jarayonning o'troq hamda chorvador madaniyatlar o'rtasidagi iqtisodiy almashinuv, texnologik uzatish va madaniy o'zaro ta'sirni kuchaytirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, migratsiya natijasida yuzaga kelgan madaniy qarishuvlar va ularning arxeologik materiallarda aks etishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

## Kalit so'zlar:

*Turon, bronza davri, migratsiya, migratsion jarayonlar, aloqa yo'llari, innovatsiya, o'troq, ko'chmanchi.*

# МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ НА ТЕРРИТОРИИ ТУРАНА В ЭПОХУ БРОНЗЫ:

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ  
(2018–2024 ГГ.)

## Аннотация:

В данной статье комплексно анализируются социально-экономические и культурные процессы бронзового века на территории Турана. В частности, на научной основе освещаются формирование, этапы развития и результаты взаимоотношений между оседлыми земледельческими культурами и скотоводческо-кочевыми общинами, а также возникшие вследствие этого процессы культурного синтеза. В исследовании миграционные процессы рассматриваются как один из ключевых факторов; анализируются причины их возникновения, направления движения и влияние на межрегиональную культурную интеграцию. Особо подчёркивается приток населения в южные регионы Турана и роль этого процесса в усилении экономического обмена, технологического трансфера и культурного взаимодействия между оседлыми и скотоводческими культурами. Кроме того, научно обосновываются культурные смешения, возникшие в результате миграции, и их отражение в археологических материалах.

## Ключевые слова:

Туран, бронзовый век, миграция, миграционные процессы, пути сообщения, инновация, оседлый, кочевой.

# MIGRATION PROCESSES IN THE TURAN REGION DURING THE BRONZE AGE:

AN ANALYSIS OF  
CONTEMPORARY  
RESEARCH (2018–2024)

## Abstract:

*This article provides a comprehensive analysis of the socio-economic and cultural processes of the Turan region during the Bronze Age. Specifically, it scientifically illuminates the formation and developmental stages of interactions between settled agricultural cultures and pastoral-nomadic communities, as well as the resulting processes of cultural synthesis. The study considers migration processes as a key factor, analyzing their causes, directions of movement, and impact on interregional cultural integration. Particular emphasis is placed on the influx of populations into the southern regions of Turan and the role of this process in strengthening economic exchange, technological transfer, and cultural interaction between settled and pastoral cultures. Furthermore, the cultural amalgams that arose from migration and their reflection in archaeological materials are scientifically substantiated.*

## Keywords:

*Turan, Bronze Age, migration, migratory processes, communication routes, innovation, sedentary, nomadic.*

Kirish. Bugungi kunda Turon tarixining bronza davriga oid bosqichida o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi hamda ko'chmanchi chorvador jamoalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqur va tizimli o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala nafaqat hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yoritishda, balki etnomadaniy jarayonlarning shakllanishini tushunishda ham dolzarb hisoblanadi. Arxeologik qazilmalar natijalari, shuningdek tarixiy tadqiqotlar asosida olib borilgan ushbu munosabatlarni Turon hududi tarixiy rivojlanishining ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etishga imkon bermoqda. Xususan, moddiy madaniyat namunalari, xo'jalik faoliyatiga

oid topilmalar hamda turar-joy qoldiqlari orqali o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarning mavjud bo'lganligi aniqlanadi. Mazkur izlanishlar natijasida shimoliy hududlardan ko'chmanchi jamoalarning migratsiyasi sodir bo'lganligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu migratsion jarayonlar Turon hududining etnomadaniy tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir va integratsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelgan. Shubhasiz, bitta maqola doirasida ushbu keng qamrovli muammoni har tomonlama yoritish murakkab vazifa hisoblanadi. Biroq, olib borilgan tahlillar mavzuni o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar tahlili.

Mazkur mavzuni yoritishda 2018–2024-yillarda olib borilgan tadqiqotlarda L.M. Rouz “Silent partners: archaeological insights on mobility, interaction and civilization in Central Asia's past”<sup>1</sup>, X.B. Sariamanto “The first nomads in Central Asia's steppes (Kazakhstan) an overview of major socio-economic changes, derived from funerary practices of the Andronovo and Saka populations of the Bronze and Iron Ages (2nd-1st millennium BCE)”<sup>2</sup> va V. Powel “Tin from Uluburun shipwreck shows small-scale commodity exchange fueled continental tin supply across Late Bronze Age Eurasia”<sup>3</sup> maqolalarida Turon hududidagi o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi o'zaro aloqalar, shuningdek Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan bo'lgan savdo munosabatlari va migratsion jarayonlar haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlarni taqdim etganlar. Ushbu izlanishlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini chuqurroq tushunishga imkon beradi va bronza davri jarayonlarini tarixiy kontekstda yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Mintaqadagi mahalliy tadqiqotchilar, jumladan A.S. Sagdullayev “Bronze age migrations in Central Asia”, “О древневосточных и Евразийских миграциях в Центральную Азию”<sup>4</sup>, N.A. Avanesova “The Sapalli culture in the system of Eurasian antiquities”<sup>5</sup>, R.H. Sulaymonov “Роль кочевников в истории Центральной Азии”<sup>6</sup> va O.A. Xamidov “Markaziy Osiyoning bronza davri savdo va aloqa yo'llari”<sup>7</sup> [3; 33-36 b] maqolalarida migratsion jarayonlar, transport va aloqa yo'llari, shuningdek savdo munosabatlari kabi masalalarni atroflicha yoritib berganlar. Ularning ishlari Turon hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarning shakllanishi, aholi migratsiyasining yo'nalishlari hamda

savdo va madaniy almashinuv jarayonlarini ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada Turonning bronza davri migratsion jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda keng qamrovli ilmiy tadqiqot olib borish uchun ijtimoiy va gumanitar fanlarda keng qo'llaniladigan bir qator usul va yondashuvlar, jumladan, tahlil, sintez va analogiya taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar.

Turon janubidagi miloddan avvalgi II ming yillik birinchi yarmida Oks sivilizatsiyasida madaniy xilmaxilligi bir qator madaniy shakllarda va mahalliy lashtirilgan arxeologik to'plamlarda dasht aholisining madaniy ta'siri va moslashuvchanlik xarakterini ifodalaydi. Dasht aholisi bilan tanishuvi va ularning hududga kirib kelishi natijasida Oks sivilizatsiyasi ijtimoiy munosabatlarida o'zgarishlarga olib kelganligi arxeologik dalillarda o'z aksini topgan. Biroq, bu o'zgarishlar tashkilot va ishlab chiqarish tizimlarining ko'lami va ma'lum turdagi materiallar, amaliyotlar va belgilarga urg'u berish bilan bog'liq bo'lganligi L.M. Rouz tomonidan e'tirof etilgan. Tadqiqotchi fikrida davom etib, Mil. avv. III ming yillikda vujudga kelgan Oks sivilizatsiyasi ijtimoiy sohasidagi asosiy tarkibiy munosabatlarning saqlanib qolganligi quyidagi holatlar bilan izohlaydi. Asosiy hududiy yaxlitlik allyuvial va tog' oldi zonalari hamda ko'plab bir xil joylarni doimiy bosib olinishi orqali, odamlarning yerga bo'lgan fundamental munosabatlari o'troq dehqonchilik, aralash chorvachilik, bir xil sug'orish inshootlari va texnologiyalaridan foydalanish orqali uzluksiz davom etgan hamda kulolchilik va metall ishlab chiqarish va dafn etish an'analari bo'yicha aniq bilim zanjirlari orqali uzatiladigan madaniy aloqalar, bir-biriga o'xshash, ammo turli jamoalar bilan bog'langanligi asoslangan<sup>6</sup>.

X.B. Sariamanto o'z tadqiqotlarida Turonning shimoliy hududlarida bronza davriga oid ko'chmanchi chorvachilikning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, mazkur xo'jalik tizimi va unga mos ijtimoiy tuzum har qanday davrda muayyan geografik muhit bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Tadqiqotchi ko'chmanchilik hodisasini kompleks jarayon sifatida baholab, uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri chorvachilik xo'jalik faoliyatining ustun shakli ekanligini

1 Lynne M. Rouse (2020) Silent partners: archaeological insights on mobility, interaction and civilization in Central Asia's past, Central Asian Survey, 39:3. – P. 398-419.

2 Bendezu-Sariamanto J. The First Nomads in Central Asia's Steppes (Kazakhstan): An Overview of Major Socioeconomic Changes, Derived from Funerary Practices of the Andronovo and Saka Populations of the Bronze and Iron Ages (2nd–1st Millennium BCE) // Nomad Lives, from Prehistoric Times to the Present Day. – 2021. – P. 479–503.

3 Powell W., Frachetti M., Pulak C., Bankoff H.A., Barjamovic G., Johnson M., Mathur R., Pigott V.C., Price M., Yener K.A. Tin from Uluburun shipwreck shows small-scale commodity exchange fueled continental tin supply across Late Bronze Age Eurasia // Science Advances. – 2022. – Vol. 8, No. 51.

4 Sagdullaev A., Togaev J. Bronze age migrations in Central Asia // International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. – 2018. – P. 86-92; Сагдуллаев А.С., Шайдуллаев А.Ш., & Тогаев Ж.Э. (2023). О древневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию. Поволжская археология, (4 (46)). – P. 113-128.

5 Avanesova N. The Sapalli culture in the system of Eurasian Antiquities // PICAS. – № 34. – Samarkand, 2022. – P. 21-43.

6 Сулейманов Р.Х. Роль кочевников в истории Центральной Азии // ИМКУ. Вып. 42. Ташкент: Фан, 2022. – С. 44-61.

qayd etadi. Bu jarayon, o'z navbatida, ma'lum hudud doirasida oziq-ovqat manbalari va yaylovlarni izlab muntazam harakatlanishni nazarda tutadi. Shuningdek, X.B. Sariamento ko'chmanchi xo'jalik tizimining muhim belgilaridan biri sifatida butun aholining yoki kamida uning salmoqli qismining ushbu faoliyatga jalb etilganligini ko'rsatadi. Uning fikricha, mazkur elementlarning barchasi Turon hududida temir asriga kelib to'liq shakllangan bo'lib, bu davrda ko'chmanchilikning yagona shakli emas, balki bir nechta turlari mavjud bo'lgan. Shu bois, "ko'chmanchilik" tushunchasi murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'lib, u o'z ichiga turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni qamrab oladi<sup>7</sup>.

V. Powel o'z tadqiqotlarida qalay konlari hamda ushbu xom ashyodan olingan mahsulotlarning Yevrosiyo va Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bo'ylab tarqalish jarayonlarini atroflicha tahlil qiladi. Uning fikricha, Turon hududidagi qalay resurslari keng hududiy miqyosida iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Mazkur qarashlar Ziyoviddin-Zirabuloq hududidan olingan qalayning izotopik tahlillari natijasida uning Xett podsholigiga mansub Kanesh yodgorligidan aniqlanishi bilan ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotchi ushbu dalillar orqali Oks sivilizatsiyasi bilan Xett podsholigi o'rtasidagi aloqalar Eron platosi va Mesopotamiya orqali amalga oshganligini ta'kidlaydi. Bu esa Turon hududidan olingan qalayning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini va uning uzoq masofalarga yetkazilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, o'rta bronza davrida Turonning o'troq va ko'chmanchi aholisi o'rtasida metall resurslari almashinuvi keng hududlarni qamrab olgan bo'lib, ushbu jarayon sharqda Xitoydan, shimolda Oltoy tog'lari hududlarigacha yetib borgan. Bu holat esa mintaqalararo iqtisodiy aloqalar va resurslar almashinuvi tizimining yuqori darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi<sup>8</sup>.

A.S. Sagdullayev, A.Sh. Shaydullayev va J.E. Tog'ayev o'z tadqiqotlarida Turon hududining bronza davri tarixi turli qabila va etnik guruhlar o'rtasida kechgan migratsiya, assimilyatsiya hamda madaniy o'zaro aloqalar bilan tavsiflanishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, qadimgi etnik jarayonlarning rivojlanishi izchil va ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lib, unda avtohton an'analar, tashqi migratsiyalar, etnik-madaniy sintez, yangilanish va an'anaviy madaniyat elementlarining qayta tiklanishi hamda yangi etnik-madaniy innovatsiyalarning shakllanishi muhim rol o'ynagan<sup>9</sup>. Mazkur tadqiqotchilar ushbu nazariy qarashlarini rivojlantirar ekanlar, dasht ko'chmanchi jamoalarining janubiy yo'nalishda amalga oshirgan migratsiyasi bronza davrida Turon

hududining keng mintaqalarini qamrab olganligini qayd etadilar. Xususan, ular migratsion harakatlar Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlari, Zarafshon daryosi havzasi, Toshkent vohasi hamda Farg'ona vodiysi orqali, shuningdek mintaqaning tog'li hududlari orqali kechganligini ilmiy asosda izohlaydilar. Natijada, ushbu jarayonlar Turonning janubiy hududlarida etnomadaniy tarkibning shakllanishi va hududiy madaniyatlarning o'zaro integratsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan<sup>10</sup>.

N.A. Avanesova o'z tadqiqotlarida Andronovo madaniy-tarixiy hamjamiyati tarkibiga kiruvchi aholining janubiy yo'nalishda amalga oshirgan migratsion harakatlariga alohida e'tibor qaratadi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, miloddan avvalgi II mingyillik davomida ushbu aholi guruhlari aravalari vositasida Volga-Ural dasht hududlaridan janubga, ya'ni Turon vohalari tomon siljigan. Tadqiqotchi bu migratsiya jarayonining keyingi bosqichida ular Trans-Zarafshon kooridori orqali harakatlanib, Zarchahalifa va Eski Sazag'onsoy daryolari atrofidagi hududlardan o'tgan holda, Oks sivilizatsiyasiga mansub shaharlashgan Sopolli madaniyati hududiga kirib borganligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. N.A. Avanesova fikrlarida davom etib, mazkur migratsion jarayonlar nafaqat aholining hududiy siljishini, balki madaniy unsurlar almashinuvi ham o'z ichiga olgan murakkab tarixiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning bunday xulosaga kelishida Sopolli madaniyati doirasida aniqlangan moddiy topilmalar, xususan, xo'jalik buyumlari, bezak elementlari hamda diniy marosimlarga oid arxeologik dalillar muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan ushbu topilmalar orqali Andronovo aholisi va janubiy voha madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va integratsiya jarayonlari mavjud bo'lganligi ilmiy jihatdan izohlangan<sup>11</sup>.

R.H. Sulaymonov o'z tadqiqotlarida chorvador jamoalarning Yevrosiyo kengliklari bo'ylab keng hududlarda yashab kelganligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, bronza davriga kelib ushbu jamoalar muayyan darajada ijtimoiy va hududiy jihatdan birlashib, ayniqsa Xitoyning shimoliy chegaralari hududlarida muhim etnomadaniy birlik sifatida shakllangan. Olimning qarashlariga ko'ra, miloddan avvalgi XV asrdan boshlab Mo'g'uliston hamda Sharqiy Turkistonning ulkan cho'l va dasht hududlarida yashagan chorvador aholi turmush tarzida muhim burilish yuz berib, ular asta-sekin otliq hayot tarziga o'ta boshlaganlar. Bu jarayon nafaqat xo'jalik yuritish shakllariga, balki harbiy va ijtimoiy tuzilmalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, ot minish texnologiyasining paydo bo'lishi aynan bronza davri bilan bog'lanmaydi. Arxeologik ma'lumotlarga

7 Khamidov, O. (2023). Markaziy Osiyoning bronza davri savdo va aloqa yo'llari / TRADE AND COMMUNICATION ROUTES OF THE BRONZE AGE OF CENTRAL ASIA. O'ZMU Xabarlari / Acta NUUZ, 1(10). – P. 33–36.

8 Lynne M. Rouse (2020) Silent partners: archaeological insights on mobility, interaction and civilization in Central Asia's past, Central Asian Survey, 39:3. – P. 411-412.

9 Bendezu-Sarmiento J. The First Nomads in Central Asia's Steppes (Kazakhstan): An Overview of Major Socioeconomic Changes, Derived from Funerary Practices of the Andronovo and Saka Populations of the Bronze and Iron Ages (2nd–1st Millennium BCE) // Nomad Lives, from Prehistoric Times to the Present Day. – 2021. – P. 484.

10 Powell W., Frachetti M., Pulak C., Bankoff H.A., Barjamovic G., Johnson M., Mathur R., Pigott V.C., Price M., Yener K.A. Tin from Uluburun shipwreck shows small-scale commodity exchange fueled continental tin supply across Late Bronze Age Eurasia // Science Advances. – 2022. – Vol. 8, No. 51.

11 Sagdullaev A., Togaev J. Bronze age migrations in Central Asia // International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. – 2018. – P. 91.

ko'ra, ushbu jarayonning ildizlari ancha qadimgi davrlarga, ya'ni eneolit davriga borib taqaladi. Xususan, Botay arxeologik yodgorligida aniqlangan topilmalar o'ziga o'rgatish va undan foydalanish jarayonlari ancha erta boshlanganligini ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur dalillar chorvador jamoalarning keyingi davrlardagi otliq turmush tarziga o'tishi uzoq davom etgan evolyutsion jarayon natijasi ekanligini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

O.A. Xamidov Turonning qadimgi savdo yo'llari haqida fikrlarini bildirib o'tkan bo'lib unda Qadimgi Sharq markazlarini Turon bo'ylab bog'lab turuvchi turli xil savdo yo'llari mavjud bo'lib, ular bir vaqtning o'zida, yoki xronologik ketma-ketlik asosida foydalanilganligi va migratsiyada asosiy yo'nalish bo'lganligi haqida fikrlarni ilgari surgan. Xususan bunday yo'llar sirasiga, Lazurit yo'li, Buyuk Xuroson yo'li, Feruza yo'li, Shimoliy Quruqlik yo'li, Janubiy Quruqlik yo'li, Suv yo'li kabi savdo yo'llarini misol qilib keltirishgan. Bu savdo yo'llari ichida Shimoliy Quruqlik yo'li, Lazurit yo'li va Buyuk Xuroson yo'li bitta yo'lining turli davrlarda turli xil nomlanishi bo'lib, u Mesopotamiya shaharlarini Eron yassitog'ligi, va undan turon va Xitoy bilan bog'lab turgan katta transmintaqaviy yo'l hisoblagan. Ushbu yo'llar Qadimgi Sharq va Turonning bronza davri madaniyatlari o'rtasida savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lganligi haqidagi asosli fikrlarni keltirganlar<sup>2</sup>.

Xulosa va takliflar. O'rganilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari asosida Turon hududida bronza davrida kechgan migratsion jarayonlarning mohiyati va yo'nalishlari yuzasidan bir qator muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Mazkur jarayonlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanish omillarini aniqlash mintaqa tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Birinchiidan, Turon hududida bronza davrida yuzaga kelgan migratsion jarayonlarning shakllanishi va izchil rivojlanishida qadimgi aloqa yo'llari muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yo'llar nafaqat aholining hududlararo harakatlanishini ta'minlagan, balki iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishida asosiy infratuzilmaviy vosita vazifasini bajargan. Natijada, turli hududlarda yashagan jamoalar o'rtasida muntazam aloqalar shakllanib, ular o'zaro ta'sir doirasini kengaytirgan.

Ikkinchidan, aloqa yo'llarining bosqichma-bosqich rivojlanishi natijasida ular oddiy kommunikatsiya vositasidan murakkab iqtisodiy tizimning tarkibiy qismiga aylangan holda, savdo yo'llari darajasiga ko'tarilgan. Bu jarayon hududlar o'rtasida tovar ayirboshlash hajmining sezilarli darajada ortishiga, iqtisodiy integratsiyaning kuchayishiga hamda turli xo'jalik tarmoqlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikning shakllanishiga xizmat qilgan.

Uchinchidan, savdo yo'llarining jadal rivojlanishi moddiy va ma'naviy madaniyat yutuqlarining bir hudud-

dan ikkinchi hududga tez va samarali tarzda tarqalishiga zamin yaratgan. Bu holat, o'z navbatida, turli madaniy an'analarning o'zaro ta'sirini kuchaytirib, madaniy sintez jarayonlarini jadallashtirgan. Natijada esa innovatsion yutuqlarning yuzaga kelishi, ularning keng hududlarga tarqalishi hamda yangi madaniy shakllarning vujudga kelishi uchun qulay sharoit shakllangan.

Shu tariqa, bronza davrida Turon hududida kechgan migratsion jarayonlar nafaqat aholining ko'chib yurishi bilan cheklanib qolmay, balki keng qamrovli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning yuzaga kelishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lgan.

1 Сагдуллаев А.С., Шайдуллаев А.Ш., & Тогаев Ж.Э. (2023). О древневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию. Поволжская археология, (4 (46)). – P. 123.

2 Avanesova N. The Sapalli culture in the system of Eurasian Antiquities // IICAS. – № 34. – Samarkand, 2022. – P. 36.